

MENGNOR OLLOMUROD SHE'RIYATIDA LIRIK QAHRAMON VA OBRAZLARNING XARAKTERLARI

Karshiyeva Xurshida Allaberdi qizi

Termiz iqtisodiyot va servis universiteti talabasi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20485545>

Annotatsiya. Ushbu maqolada Mengnor Ollomurod she'riyatidagi lirik qahramon va obrazlar xarakteri tahlil qilinadi. Shoir ijodida inson qalbining ruhiy iztiroblari, ma'naviy inqiroz, haqiqat va adolat izlash motivlari yetakchi o'rin egallashi yoritilgan. Tadqiqotda "Sahrolarning sarobida", "Bir nokas ko'nglimni...", "Ko'nglimni sindirdi..." kabi she'rlar misolida lirik qahramonning ichki kechinmalari, iztirob va umid o'rtasidagi ruhiy holati poetik jihatdan tahlil etiladi. Shuningdek, shoirning metafora, antiteza, kinoya va simvolik obrazlardan foydalanish mahorati ochib beriladi. Maqolada xalqona til unsurlari bilan mumtoz she'riyat an'analarining uyg'unlashuvi Mengnor Ollomurod uslubining muhim xususiyati sifatida baholanadi. Tadqiqot natijasida shoir yaratgan lirik qahramon obrazida zamonaviy insonning ma'naviy qiyofasi, ijtimoiy qarashlari va ruhiy olami aks etishi asoslab beriladi.

Аннотация. В данной статье анализируются лирический герой и характеры образов в поэзии Менгнор Олломурад. Освещаются ведущие мотивы творчества поэта, такие как духовные страдания человеческой души, нравственный кризис, поиск истины и справедливости. На примере стихотворений «В мираже пустынь», «Некий подлец ранил моё сердце...», «Разбил мою душу...» поэтически исследуются внутренние переживания лирического героя, его состояние между болью и надеждой. Также раскрывается мастерство поэта в использовании метафоры, антитезы, иронии и символических образов. В статье гармоничное сочетание народного языка и традиций классической поэзии оценивается как важная особенность стиля Менгнора Олломурада. В результате исследования обосновывается, что созданный поэтом лирический герой отражает духовный облик, социальные взгляды и внутренний мир современного человека.

Abstract. This article analyzes the lyrical hero and the characteristics of images in the poetry of Mengnor Ollomurod. The study highlights the leading themes in the poet's works, such as spiritual suffering of the human soul, moral crisis, and the search for truth and justice. Using poems like "In the Mirage of the Deserts," "A Vile Person Hurt My Heart...", and "Broke My Soul..." as examples, the article examines the lyrical hero's inner experiences and psychological state between pain and hope from a poetic perspective. Furthermore, the poet's mastery in the use of metaphor, antithesis, irony, and symbolic imagery is revealed. The article also evaluates the harmony of folk language elements and classical poetic traditions as an important feature of Mengnor Ollomurod's style. The research concludes that the lyrical hero created by the poet reflects the spiritual image, social views, and inner world of the modern individual.

Kalit so'zlar: Mengnor Ollomurod, lirik qahramon, metafora, antiteza, kinoya, simvolik obraz, xarakter

So'z san'ati shunday bir kuchli qurolki, insonning ko'ngliga to'g'ridan-to'g'ri kirib boradi, uni hech qanday to'siq yoki vositasiz zabt eta oladi. Insonlarning ko'ngliga hech bir to'siqsiz kirib

boruvchi mohir ijodkorlardan biri bu – Mengnor Ollomurod. Uning ijodi, she'rlarining badiiyati, undagi obrazlilik, xalqona tilda ifodalangan yuksak g'oyaviylik, mavzu va mazmun uyg'unligi, janr shakllarining xilma-xilligi va uslubiy rang-baranglik bugungi yosh adabiyotchilar, tadqiqotchilar uchun ham dolzarb ilmiy yo'nalish hisoblanadi. Mengnor Ollomurod she'rlarini chuqur tahlil qilish orqali nafaqat adabiy-estetik jihatlarni anglash, balki millatning ijtimoiy-ruhiy holatini shoir yaratgan obrazlar orqali tasavvur etish mumkin. Bugungi kunda millat, til, ona yurt, istiqloq, milliy qadriyatlar va insoniylik masalalarining adabiyotdagi badiiy ifodasi dolzarb mavzulardan biridir. Shu nuqtayi nazardan Mengnor Ollomurod ijodini o'rganish, ayniqsa uning badiiyati, poetik mahorati, janr shakllari va uslubiy xususiyatlarini tahlil qilish zamonaviy adabiyotshunoslikda o'zining ilmiy va amaliy ahamiyati bilan yangilik va dolzarblik kasb etadi. Shoirning so'nggi yillardagi ijodida inson qalbining ichki evrilishlari, jamiyatdagi ma'naviy inqirozlar va lirik qahramonning dunyo bilan to'qnashuvi markaziy o'ringa chiqqan. Shoir "Sahrolarning sarobida" she'rida lirik qahramon o'zini to'rt xil "olov" ichida tasvirlaydi: muhabbat olovi, qayg'u qalovi, shomtalosh (oqshom va tun oralig'i) talovi va sahro sarobi.

*Muhabbatning olovida yongayman,
Qayg'ularim qalovida yongayman,
Shomtaloshning talovida yongayman,
Sahrolarning sarobida sarsonman.*

Shuningdek, lirik qahramon metaforik obraz bilan to'yintirilgan o'rinlar ham bo'lib, qahramon o'zini "gullab-gullab qotgan daraxt" deb ataydi. Bu — juda kuchli obraz. Daraxt gulladi, lekin meva tugunida emas, balki iztirobning kuchidan "qotib qoldi". Bu shoirning umid va umidsizlik o'rtasidagi holatini ko'rsatadi.

*Gullab-gullab... qotgan daraxt mendirman,
Bo'zlab-bo'zlab botgan farax mendirman,
Tunlar xunlar yutgan karaxt mendirman...
Sahrolarning sarobida sarsonman.*

She'r davomida lirik qahramonning bu dunyoda haqiqatni izlab, faqat o'tkinchi narsalarga (sarobga) duch kelayotgani bot-bot takrorlanadi. Biroq shunga qaramay, uning she'riyatida lirik qahramon ziddiyatlarni iztirob bilan qabul qiladi, "Bir nokas ko'nglimni..." she'ri davomida ijtimoiy-axloqiy qarashlarini ifodalaydi. Bu yerda antiteza (qarama-qarshilik) usulidan ustalik bilan foydalanilgan. Shoir yovuzlikni (nokasni) hayvoniy instinktlar bilan qiyoslaydi. "Bir nokas ko'nglimni gajidi itday" misrasida "it" va "nokas" o'rtasidagi farq ochiladi. It qopsa, bu uning tabiati, lekin insonning nokaslik qilishi — bu kutilmagan va og'riqli zarba ekanligi dohiyona va ijodkorona ta'kid etiladi.

*Avval u zulmatda bijg'idi bitday,
Ko'zimga ko'rindi so'ng qora qurtday,
Zahridan bir lahza to'kildim tutday...
Bir nokas ko'nglimni g'ajidi itday.*

Qahramon Yaratganga murojaat qilib: "Nechun ba'zi kasni nafsga boy berding?" deb so'raydi. Bu shoirning insoniyat ma'naviyatsizlashib borayotganidan chekayotgan dardi hisoblanadi.

*Ollohim, insonga jannat joy berding,
Siylab, manglayiga quyosh, oy berding,
Nechun ba'zi kasni nafsga boy berding...
Bir nokas ko'nglimni g'ajidi itday.*

“Ko'nglimni sindirdi...” she'rida ham lirin qahramon qiyofasida inson uqubatlari oydinlashadi, bu iztiroblar moddiyat emas, ijtimoiy emas, u ruhiy, ma'naviy. Ushbu misralarda lirik qahramonning dunyoni anglash darajasi o'zining eng yuqori (kulminatsion) nuqtasiga chiqadi.

*Qora dev qoshiga ta'zim etib bor,
Bu yorug' kuning tinch o'tishi uchun.
Iblisni siyla-yu, o'zing ayla xor,
Iymoniy yumushing bitishi uchun.*

Mengnor Ollomurod an'anaviy obrazlarga yangicha nigoh bilan qaraydi. Bundayin qarashlar esa o'zbek adabiyoti uchun asil topilmadir. Shoir Farhod va Majnun kabi klassik qahramonlarni tilga oladi, lekin ularni “ertak, yolg'on” deb atashga majbur bo'ladi. Nega? Chunki bugungi kunning “nokas”lari bu yuksak tuyg'ularni sindirib bo'lgan.

*Farhodning tog'larni parchinlab, o'yib,
Suvlar keltirgani yolg'on de, yolg'on.
Majnunning muhabbat o'tida kuyib,
Yongani ertak de, shaksiz, begumon.
Qarg'a o'laksa yeb, yashar uch yuz yil,
Bilsang ham, hech qachon aytmagil ochiq.
Qarg'a ko'kda uchar, sen buni aytgil,
Qarg'aning onasin alqa, har nechuk.*

Shoir she'riyatida, lirik qahramon nutqida simvolizm unsurlari ustuvor. “Qarg'a ko'kda uchar, sen buni aytgil, Qarg'aning onasin alqa, har nechuk” misralari kinoya (ironiya) uslubida yozilgan. Bu yerda shoir o'z qadrini bilmagan, pastkash odamlarning jamiyatda yuqori darajaga chiqib qolganiga ishora qilmoqda. Mengnor Ollomurodning qahramoni — og'riqni ichiga yutib, sukutda yig'laydigan, ammo imoni va ko'nglini pok saqlashga intiladigan shaxs. Shoir xalqona tildagi so'zlar (itday g'ajimoq, talov, qalov) va mumtoz she'riyat elementlarini (Hijron ruhi, ravonim, tobonim) birlashtiradi. Bu bilan shoir zamonning emas, insoniyatning, qarashlarning o'zgarganligini uqtiradi, tarixdan saboq olib, bugunni yaratishga undaydi.

Darhaqiqat, Mengnor Ollomurod she'rlari o'zining rang-barangligi, qahramonlarning turfa xarakterlari bilan boshqa ijodkorlardan ajralib turadi. Ijodkor she'riyatida lirik qahramon obrazining shakllanishi va o'ziga xosligi – shoirning jamiyki adabiy-estetik qarashlari, hayotiy tajribasi va milliy tafakkuri bilan chambarchas bog'liq. U yaratgan lirik qahramon – har doim rost so'zlashni yoqtiradigan, insonlardagi kamchiliklarni yashirmay yuziga aytadigan, laganbardorlikdan hazar qiladigan sodda yigit. Mengnor Ollomurodning lirik qahramoni – bu shoirning o'zi, uning xarakteri va sodda ko'nglidir.